bu yerda:  $v$  - kesish tezligi;  $m/min$ ;  $T$ - parmalarning turg'unligi,  $min$ ;  $A$ - parmalanadigan materialning sifatiga, parmaning materialiga va parmalash sharoitiga bog'liq o'zgarmas kattalik;  $m$ - turg'unligining nisbiy ko'rsatkichi ( bu ko'rsatkich parmalash

Bajardi	Mirzayev B			<i>Bitiruv malakaviy ishi</i>	Var.
Rahbar	Ostonov I				
O'zg.	Var	Hujjat N°	Imzo	Sana	

nadigan materialga, parma materialiga va parmalash sharoitiga bog`liq bo'ladi).

Parmalashda kesish tezligi quyidagi formula bilan ifodalanadi:

$$v = \frac{C_v \cdot D^{x_v}}{T^m \cdot s^{y_v}} \cdot K, \quad (5.1)$$

bu erda  $v$ - kesish tezligi,  $m/min$ ;  $C_v$  - parmalanadigan materialga, parma materialiga, parmaning ish kismi geometriyasiga va parmalash sharoitiga (parmalash chuqurligi, sovitilish-sovitilmasligi va boshqalarga) bog`lik o'zgarmas koeffitsient;  $D$ -parmaning diametri,  $mm$ ;  $T$  - parmaning turg'unligi,  $min$ ;  $s$  - surish,  $mm/ayl$ ;  $m$ - nisbiy turgunlik ko'rsatkichi;  $x_v$  va  $y_v$  - daraja ko'rsatkich-lari (bu ko'rsatkichlar parma diametri bilan surish qiymatining kesish tezligiga ta'sirini ifodalaydi);  $K$  - parmalashning konkret sharoitini hisobga oluvchi koeffitsient:

$$K = K_L \cdot K_a \cdot K_{mcc},$$

bu erda  $K_L$ ,  $K_a$ ,  $K_{mcc}$ - parmalanayotgan teshik chuqurligining napma diametriga, parma kesuvchi kismining materialiga va moylash-sovitish suyuqligining ishlatilish-ishlatilmasligiga bog`liq holda ta'sirini hisobga oluvchi koeffitsientlar.

Parmalashda kesish chuqurligi teshik diametrining yarmiga teng.

Parmalash, zenkerlash va razvyortkalashda kesish rejimi elementlariga kesish chuqurligi ( $t$ ), surish tezligi ( $s$ ) hamda kesish tezliklari ( $v$ ) kiradi.

$$t = \frac{D}{2}, \text{ MM}$$

Zenkerlash va razvyotkalashda kesish chuqurligi quyidagicha aniqlanadi.

$$t = \frac{D - d}{2}, \text{ MM}$$

bu yerda:  $D$  – ishlangan teshik diametri,  $mm$ ;  $d$  – ishlanadigan teshik diametri,  $mm$ .

Surish tezligi ( $s$ ) deb keskich to`la bir marta aylanganda uning o`qi bo`ylab yurgan yo`liga aytiladi:  $s = s_s D^{x_s}$ ,  $mm/ayl$ , bu erda  $s_s$   $x_s$ – ishlanadigan materialga va ishlash sharoitiga bog`liq bo`lgan koeffisient.

$s_s$  va  $x_s$  qiymatlari spravochnikdan olinadi.

Zenkerlashda  $s$  qiymati parmalashga nisbatan 2 – 2,5 marta ortiq olinadi.

Parmalash, zenkerlash varazvyortkalashda kesish tezligi quyidagicha aniqlanadi:

Bajardi	Mirzayev B			<i>Bitiruv malakaviy ishi</i>	Var.
Rahbar	Ostonov I				
O'zg.	Var	Hujjat N°	Imzo		Sana

$$v = \frac{\pi D \cdot n}{1000}, \text{ m/min}$$

bu yerda:  $D$  – kesish asbobining diametri, mm;  $n$ – kesish asbobining bir minutdagi aylanish soni. Parmalashda ruxsat etiladigan kesish tezligi quyidagi emperik formula bo`yicha aniqlanadi:

$$v = \frac{C_g \cdot D^q}{T^m \cdot S^{y_g}}, \text{ m/min.}$$

Zenkerlashda va razvyortkalashda

$$v = \frac{C_v \cdot D^q}{T^m \cdot t^{x_v} \cdot S^{y_v}}, \text{ m/min,}$$

bu yerda:  $S_v$ – material va kesish sharoitini xarakterlovchi koeffisient;  $T$  – keskichning chidamliligi, min;  $t$  – nisbiy chidamlilik ko`rsatkichi.

$S_v, T, t, q, x_v, y_v$  - qiymatlar miqdori spravochnikdan olinadi.

Parmalashda surish kuchi quyidagi formula bo`yicha aniqlanadi:

$$P_0 = C_0 \cdot D^{x_p} \cdot S^{y_p}, \text{ N (kg),}$$

bu erda  $S_0$  – ishlanadigan materialga va parmalash sharoitiga bog`liq koeffisient.

Aylantiruvchi moment quyidagi formula bo`yicha aniqlanadi:

$$M_{aiv} = C_M \cdot D^{x_M} \cdot S^{y_M}; \text{ N}\cdot\text{m}$$

bu yerda:  $S_M$  – ishlanadigan materialga, parmalash sharoitiga bog`liq koeffisient.

$S_M, X_M, U_M$  qiymatlari spravochnikdan olinadi. Parmalashga sarflanuvchi effektiv quvvatni quyidagi formula bo`yicha aniqlash mumkin:

$$N_e = \frac{M_{kp}}{716,2 \cdot 1,36} \text{ kВm}$$

Dastgoh dvigatelining quvvati  $N_g = \frac{N_e}{\eta}$  ga teng bo`ladi, bu erda

$\eta$  – dastgoh FIK.

Parmalash, zenkerlash va razvyortkalashda asosiy texnologik vaqt quyidagi formula bo`yicha aniqlanadi:

Bajardi	Mirzayev B			<i>Bitiruv malakaviy ishi</i>	Var.
Rahbar	Ostonov I				
O`zg.	Var	Hujjat N°	Imzo	Sana	

$$t_0 = \frac{L}{n \cdot s} = \frac{l + l_1 + l_2}{n \cdot s} ;$$

bu erda  $L$  – ishlovni hisoblash uzunligi, mm;  $l$  – ishlanadigan teshik uzunligi, mm;  $l_1$  – kirish uzunligi, mm;  $l_2$  – chiqish uzunligi, mm.

Spiral parmalarini charxlash. Spiral parmalar maxsus charxlash dastgohlarida charxlanadi. Ammo, ba`zan, tokarning parmani odatda charxlash dastgohida qo`l bilan charxlashiga to`g`ri keladi.

Parmalashda kesish tezligiga quyidagi faktorlar ta'sir etadi:

Parmalanadigan materialning fizik-mexanikaviy xossalari. Po'latning mustahkamlik chegarasi  $\sigma_b$ , cho'yanning esa qattiqligi  $HB$  qanchalik katta bo'lsa, parmalanadigan materialning mexanik xossalari shunchalik yuqori. Parmalanadigan material mexanik xossalarining ortishi bilan parmalash ishining bajarilishi uchun ham, qirindi ajralishi uchun ham shuncha ko'p energiya sarf bo'ladi, buning natijasida parmaning kesuvchi qismiga tushadigan nagruzka ortadi, ko'p miqdorda ajralib chiqadigan issiqlik esa parmani qizdiradi, bu hol kesuvchi asbobning tez e yilishiga sabab bo'ladi. Parmaning hisoblash turg`unligini saqlab qolish uchun kesish tezligini pasaytirish zarur.

Parmalash chuqurligi. Parmalash chuqurligining ortib borishi bilan kesish zonasidan qirindini chiqarish va kesish zonasiga moylash-sovitish suyuqligini kiritish qiyinlashadi, parmaning parmalanayotgan teshik yuzasiga ishqalanishi ortadi, parmaning ishlash sharoiti yomonlashadi. Shu sababli chuqurligi  $D$  dan ortiq teshiklar parmalashda (bu erda  $D$  - parmaning diametri, mm) chuqur parmalash uchun ishlatiladigan maxsus parmalaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Parma kesuvchi qismining materiali. Parma materiali kesish tezligiga katta ta'sir ko'rsatadi. Parma kesuvchi qismining har xil materiali uchun yo'l qo'yiladigan kesish tezligi formulaga  $K_a$  koeffitsient kiritish yo'li bilan hisobga olinadi.

Parmaning diametri. Parma diametrining ortib borishi bilan kesish tezligi oshadi. Buning sababi shuki, parmaning turg`unligi va bikirligi shu parma massasining ortishi hisobiga ortib boradi, kesuvchi qirralardan issiqlikning chiqarilishi yaxshilanadi, kesish zonasiga sovitish suyuqligining kiritilishi osonlashadi, parmaning yeyilishi kamayadi. Parma diametrining ortib borishi bilan kirindining chiqishini ta'minlaydigan ariqchalar hajmi oshib boradi.

Bajardi	Mirzayev B			<i>Bitiruv malakaviy ishi</i>	Var.
Rahbar	Ostonov I				
O'zg.	Var	Hujjat N°	Imzo	Sana	

Moylash-sovitish suyuqligi. Moylash-sovitish suyuqligining ishlatilishi parma turg'unligining va kesish tezligining ortishiga sabab bo'ladi. Sovitish suyuqligi ishlatilganda parmalangan teshik toza chiqadi. Po'lat tayyorlanmakarga teshik parmalashda sovitish suyuqligi sifatida emulsiya ishlatiladi, kul rang cho'yan tayyorlanmalarga teshik parmalashda esa sovitish suyuqligi ishlatilmaydi yoki kerosin ishlatiladi. Sovitish suyuqligi kesish zonasiga qirindi chiqadigan riqchalar orqali yoki parmaning ichki kanallari orqali yuboriladi. Parmaning ichki kanallari orqali yuborish usuli sovitish suyuqligining samarasini oshiradi. Agar teshik sovitish suyuqligisiz parmalanadigan bo'lsa, u holda kesish tezligiga kiritiladigan tuzatish koeffitsienti

$K_{mss} = 1$  qilib, sovitish suyuqligi ishlatilganda esa  $K_{mss} = 1,1,3$  qilib olinadi.

Surish. Parmalashda ish unumini oshirish uchun imkoni boricha katta surish bilan ishlash ma'qul. Surish qiymatining oshirilishi kesik ko'ndalang kesimi yuzining ortishiga olib keladi, natijada parmaning eyilishi ortadi va ko'p issiqlik ajralib chiqadi, kesish kuchlari ortadi. Bundan tashqari, surishqiymati parmaning puxtaligiga va dastgoh mexanizmlarining (surish mexanizmining) mustahkamligiga, parmaning turg'unligi va *SMAD* sistemasining bikrligiga ham bog'liq. Surish qiymatining ortishi bilan kesish tezligi pasayadi. Tezkesar po'latdan tayyorlangan parmalar uchun yo'l qo'yiladigan eng katta surish qiymati  $S_{max}$  quyidagi formuladan hisoblab topiladi:

$$S_{max} = C_s \cdot D^{0,6},$$

bu erda  $S_{max}$  - teshik parmalashda eng katta surish qiymati, *mm/ayl*; teshikni parmalab kengaytirishda surish qiymatini ikki baravar oshirish mumkin;  $C_s$ - parmalash sharoitini (parmalanadigan material, parma materiali, talab etiladigan aniqlik va boshqalarni) xarakterlovchi koeffitsient;  $D$  - parmaning diametri, *mm*.

Olingan statistik ma'lumotlarga qaraganda qo'lda ishlatiladigan parmalash dastgohlarida qo'lda bajarilgan ishlari 28,8% tashkil etadi. Bu jarayon ish boshlanishidan, tugashigacha bo'lgan jarayonni o'z ichiga oladi. Parmalash operatciyasida ishlab chiqarish unumdorligini oshirish asosiy va yordamchi vaqtlarni qisqartirish ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va racionallashtirish hisobiga amalga oshirish mumkin.

Birinchi qiladigan ishimiz operatciyalarni avtomatlashtirishdir bunda dastgohni zogotovka bilan ta'minlash, maxkamlash va parmani avtomatik ravishda

Bajardi	Mirzayev B			<i>Bitiruv malakaviy ishi</i>	Var.
Rahbar	Ostonov I				
O'zg.	Var	Hujjat N°	Imzo	Sana	



almashtirish, dastgohini dastur bo'yicha boshqarilishi shu jarayonlarni ma'lum miqdorda ishlab chiqarish vaqtini qisqartirishga, mehnat sharoitlarini yaxshilanishiga olib keladi. Ammo eng yaxshi natijani olish uchun ishlab chiqarishni (kompleks) ravishda avtomatlashtirish hisobiga erishishi mumkin.

Endi asosiy va yordamchi vaqtni qisqartirish yo'llarini ko'rib chiqadigan bo'lsak: asosiy vaqtni qisqartirish uchun har xil variantlarni taklif qilamiz. Bunga misol qilib RDB 2R135F2 dastgohini olishimiz mumkin:

Yordamchi vaqtni esa qisqartirish uchun esa quyidagilarni taklif qilamiz.

Tez harakatlanuvchi maslamalar yordamida dastgohni to'xtatmagan holda zgotovkani qaytarib bo'shatib olish ko'p pozitciyali stoldan foydalanish. Qo'lda bajariladigan mexanik ishlarni to'liq avtomatlashtirish.

Shu ko'rib chiqgan omillar ishlab chiqarishga o'z ta'sirini o'tkazadi, olib borilgan tadqiqot va tajribalar shuningdek ilmiy tadqiqot ishlari ishlab chiqarish korxonalaridan olingan natijalardan kelib chiqib ishlab chiqarishga ketadigan vaqtni qisqartirish va yaxshi natija olish uchun asosiy va yordamchi vaqtni qisqartirish zarur.

Bu holatga misol tariqasida quydagilarni keltiramiz: aytaylik parmalovchi 1ta detalni teshish uchun konduktordan va tezkesar po'latdan tayyorlangan parma bilan 7 soat ish vaqtida 100 ta zagotovkada teshiklarni parmaladi .


Bu erda foydalanilayotgan konduktor to'liq mukammal bo'lmaganligi uchun bu konduktorni o'rnatish, qotirish, bo'shatish uchun shuningdek yordamchi vaqtlarga 50 % (3,5 soat) sarflanmoqda qolgan ishchi vaqtga esa 50 % (3,5 soat) vaqt sarflanmoqda.

Ishlab chiqarish unumdorligini oshirish maqsadida kesish tezligini 2 barobar oshiramiz parmani esa tezkesar po'lat emas qatiq qotishmali almashtiriladigan plastinkali parmalardan foydalanamiz.Natijada 100 zagotovka teshish uchun asosiy vaqtdan 3,5 soat emas 1,75 soat sarflandi.

Shu yo'l bilan biz asosiy vaqtdan 1,75 soat vaqt iqtisod qilinadi . Lekin yordamchi vaqt bu erda o'zgarmadi ya'ni (konduktordan va tezkesar po'latdan tayyorlangan keskich bilan 100 zagotovka teshish uchun 3,5 soat vaqt sarflanmoqda).Umuman olganda 100 zagotovkaga ishlov berish uchun 1,75 soat sarflanmoqda umumiy sarflangan vaqtlar yig'indisi 2,25 soatni tashkil qiladi , demak umumiy hisobda ishlab chiqarish ish unumi 1,33 % ga oshmoqda.

Bajardi	Mirzayev B			Bitiruv malakaviy ishi	Var.
Rahbar	Ostonov I				
O'zg.	Var	Hujjat N°	Imzo	Sana	

Hozirda ishlab chiqarishda qo'llanilayotgan qatiq qotishmali plastinkali parmalarining o'rniga, maxsus konavkali, mustahkamligi yuqori parmalaridan foydalanilmoqda bu parmalar yuqori tezlikda ishlash imkoniyatini beradi bu albatta ishlab chiqarishda asosiy vaqtni qisqartirishga va ishlab chiqarish unumdorligini oshishiga olib keladi.



2. 1-Rasm. Mashinasozlik ishlab chiqarish korxonalarida ishlatiladigan parmalar turlari

a-b spiral parma, v-s to'g'ri kanavkali parma, g) patsimon parma, d) qurolsozlik parmasi, e) bir qanotli parma, j) ikki qanotlichuqur teshiklarni teshish uchun parma, z) xalqasimon parma, s) tcentrovka

Bajardi	Mirzayev B			<i>Bitiruv malakaviy ishi</i>	Var.
Rahbar	Ostonov I				
O'zg.	Var	Hujjat N°	Imzo	Sana	

## 2.4.Jihozlarning miqdorini aniqlash.

Jixozlarining soni operatsiyalar buyicha vaqtining chiqarishi takticha nisbati bilan aniqlanadi ya`ni

$$m_p = T_d / T_r$$

Operatsiya bo'yicha dona vaqti quyidagilar

1.  $T_d=11.62\text{min}$
2.  $T_d=1.3\text{ min}$
3.  $T_d=1.3\text{ min}$
4.  $T_d=3.29\text{ min}$
5.  $T_d=0.95\text{ min}$
6.  $T_d=0.95\text{ min}$
7.  $T_d=1.85\text{ min}$

1.Operatsiya uchun tokarlik xisoblangan dastgohlar soni

$$m_p = T_d / T_r = 11.62 / 2.2 = 5.2$$

qabul qilamiz  $m_p=6$  Dasgohning saqlanish koeffitsienti

$$\eta = m_p / m_n = 5.2 / 6 \cdot 100\% = 86\%$$

2-3.Operatsiya uchun tokarlik LM70 AT model hisoblangan dastgohlar soni

$$m_p = T_d / T_r = 1.3 / 2.2 = 0.59$$

qabul qilamiz  $m_p=1$  Dasgohning saqlanish koeffitsienti

$$\eta = m_p / m_n = 0.59 / 1 \cdot 100\% = 59\%$$

4.Operatsiya uchun jilvirlash 3B51 model hisoblangan dastgohlar soni

$$m_p = T_d / T_r = 3.29 / 2.2 = 1.49$$

qabul qilamiz  $m_p=2$  Dasgohning saqlanish koeffitsienti

$$\eta = m_p / m_n = 1.49 / 2 \cdot 100\% = 74\%$$

5-6.Operatsiya parmalash 2623PMFI model dastgoh

$$m_p = T_d / T_r = 0.95 / 2.2 = 0.43$$

qabul qilamiz  $m_p=1$  Dasgohning saqlanish koeffitsienti

$$\eta = m_p / m_n = 0.43 / 1 \cdot 100\% = 43\%$$

7.Operatsiya frezalash 692M model dastgoh

$$m_p = T_d / T_r = 1.85 / 2.2 = 0.84$$

qabul qilamiz  $m_p=1$  Dasgohning saqlanish koeffitsienti

Bajardi	Mirzayev B			Bitiruv malakaviy ishi	Var.
Rahbar	Ostonov I				
O'zg.	Var	Hujjat N°	Imzo	Sana	

$$\eta = m_p / m_n = 0.84 / 1 \cdot 100\% = 84\%$$

## 2.5. Jihozlarning yuklanish darajasini aniqlash

Bu holda detallarning birnesli operatsiyaga yaratiladi va ishlov beriladi .O'rta yuklanish

$$\eta = \sum_{i=1}^n \eta_i = \frac{86+59+59+74+43+43+84}{7} = 64\%$$

Bajardi	Mirzayev B			Bitiruv malakaviy ishi	Var.
Rahbar	Ostonov I				
O'zg.	Var	Hujjat N°	Imzo	Sana	

### III. TEXNIKA XAVFSIZLIGI VA YoNG'INGA QARSHI

#### XAVFSIZLIK QISMI.

##### Kirish.

“Hayot faoliyat xavfsizligi” ning mehnatni va tabiat va atrof muhitni hamda fuqolarni muhofaza qilish fanlariga asoslangan qismi, ya`ni kirish qismida ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni o`z ichiga olib, ushbu muammolarni echimini O`zbekiston Respublikasining “Mehnatni muhofaza qilish to`g`risida “ gi qonunlari mehnat kodeksi, atrof muhitni muhofaza qilish qonunlari, favqulodda vaziyatlarda fuqoro muhofazasi qonunlari va ushbu sohalar bo`yicha boshqa me`yoriy hujjatlarda o`z aksini topganligini ko`rsatib o`tish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

##### **3.1. Texnologik jarayonlarni xavfsizligini ta`minlovchi vositalar.**

To`qimachilik va engil sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish jarayonlari GOST 12.3.002-75 “Ishlab chiqarish jarayonlari”. Umumiy xavfsizlik talablariga muvofiq bo`lishi lozim.

Inson hayoti va sog`ligiga doimiy yoki vaqti-vaqti bilan xavf tug`diruvchi joy xavfli chegara yoki mintaqa deb ataladi. Bu asosan mashina va jihozlarning ochiq holdagi aylanadigan va harakatlanadigan qismlari, aylanadigan qirquvchi asboblari, zanjirli va tishli uzatmalar, harakatlanuvchi stanoklarning ishchi stollari, issiq yuzalar, zaharli kimyoviy moddalar va pardoqlashga ishlatiladigan kislota, ishqorlar va boshqa o`yuvchi moddalar bilan ishlaydigan ish joylari, elektr tokidan foydalanishdagi ish o`rinlari, yuklarni bir joydan ikkinchi joyga ko`chirib yuradigan kranlar va mashinalarning harakat chegarasi doirasidagi xavfli mintaqalar shular jumlasiga kiradi.

Aylanuvchi qismlar bilan ishchilarning kiyimidan yoki sochidan ilintirib olishi mumkin bo`lgan jihoz va uskunalarning atroflari ayniqsa o`ta xavfli chegara hisoblanadi.

Shuningdek, jihoz va uskunalarda ishlaganda elektr tokidan zararlanish, issiqlik, elektomagnit, ionlashgan nurlar, shovqin, titrash, ultratovush, zaharli gazlar va bug`lar ta`siriga tushib qolish ham xavfli chegaralar yoki mintaqalar qatoriga kiradi.

Qurilma va uskunalarda ishlayotganda qirqimlarining uchib ketishi, ishlayotgan asboblarning sinib har tomonga sachrab ketishi, detall yaxshi mahkamlanmaganligi hisobida ishlov berish jarayonida otilib ketishi natijasida ishchilarni jarohat olishi ham xavfli mintaqalar qatoriga kiritiladi.

<i>Bajardi</i>	<i>Mirzayev B</i>			<i>Bitiruv malakaviy ishi</i>	<i>Var.</i>
<i>Rahbar</i>	<i>Ostonov I</i>				
<i>O`zg.</i>	<i>Var</i>	<i>Hujjat N°</i>	<i>Imzo</i>	<i>Sana</i>	

Xavfli mintaqalar doimiy, harakatlanuvchan va vaqt-vaqti bilan paydo bo'ladigan turlarga bo'linadi.

A) Doimiy xavfli mintaqalarga, zanjirli va tishli uzatmalar, dastgohlarning qirqish qisimlari va harakatlanuvchi valiklari kiradi.

B) Harakatlanuvchan xavfli mintaqalarga esa prokat qilish stanlari, potok liniyalari, konveyerlar, qirqish joyi o'zgarib turadigan agregat dastgohlari va boshqalar kiradi.

V) Vaqt-vaqti bilan paydo bo'ladigan xavfli mintaqalarga yuk ko'tarish kranlari, kran balkalar, tal va telferlar kiradi. Chunki bu qurilmalar ish joylarini doimiy o'zgartirib turadi va qaerda ish bajarayotgan bo'lsa, shu erda xavfli mintaqaga vujudga keladi.

Xavfli mintaqalardan saqlanish vositalari va aslahalari ikki guruxga bo'linadi.

1. Jamoa muhofaza aslahalari, ishchilarni ionlanuvchi nurlardan, elektromagnit, magnit va elektr maydonlaridan, mexanik, kimyoviy biologik omillardan muhofazalovchi vositalar kiradi.

2. Shaxsiy muhofaza maxsus terini, nafas olish organlarini, qo'lni, yuzni, ko'zni, quloqni muhofaza qiluvchi vositalar va aslahalar kiradi.

Ishlab chiqarishning hamma soha va tarmoqlarida mehnat xavfsizligini oshirish, shikastlanish hamda zararlanishlarning oldini olish uchun maxsus texnik vositalari qo'llaniladi va ularga quyidagilar kiradi.

Muhofazalovchi to'siq vositalari.

To'siq vositalari ishchilarning ishlab chiqarishning xavfli mintaqalariga tushib qolishiga xalal beradigan qilib o'rnatiladi.

Asosan mashina va qurilmalarning aylanuvchi va harakatlanuvchi ta'sir doyralarida, qirqish va ishlov berish joylarini, elektr toki urishi xavfi bo'lgan va har xil nurlanishlar bo'lishi mumkin bo'lgan xonalar, shuningdek havo muhitiga zararli moddalar chiqarayotgan joylar ham to'siq vositalari bilan ta'minlanadi.

Bundan tashqari qurilish tashkilotlarida, qurilish ishlari bajarilayotgan maydonlar kranlar o'rnatilgan mintaqalar, ishchilarning baland joylardagi ish o'rinlari, to'siq vositalari bilan ta'minlanishi shart.

3.2. Yuk ko'tarish va tashish ishlarida xavfsizlikni ta'minlash

Ishlab chiqarish korxonalarida yuklarni tashish va yuqoriga ko'tarish uchun ko'pgina mashina va mexanizmlar ishlatiladi. Tashuvchi mexanizmlar ikki turga bo'linadi:

Bajardi	Mirzayev B			<i>Bitiruv malakaviy ishi</i>	Var.
Rahbar	Ostonov I				
O'zg.	Var	Hujjat N°	Imzo	Sana	

a) Uzluksiz ishlaydigan - lentali transportyorlar, havo yordamida, rolganglar, tarnovlar yordamida ishlaydigan turlari mavjud.

b) Davriy ravishda ishlaydiganlarga - avtomobillar, avtopogruzchiklar, elektropogruzchiklar, temir yo'l vagonlari kiradi.

v) Yuqoriga yuk ko'taruvchi uskunalarga ko'prik kranlari, avtomobillarga o'rnatilgan aylanma kranlar, telfer, o'zi yurar aravachaga o'rnatilgan tal va boshqalar kiradi.

Yuk ko'tarish, tashish uskuna va mashinalari "Davlat kon tex nazorati" idoralari tomonidan rasmiylashtirilgach, texnik ko'rikdan o'tgandan so'ng ishlatilishi mumkin. Texnik ko'rik to'liq – har uch yilda bir marta va qisman ko'rik esa - har 12 oyda bir marta o'tkazilishi shart hisoblanadi.

To'liq texnik ko'rikda - yuk ko'tarish mashinalari yaxshilab qarab chiqiladi, statik va dinamik sinovlardan o'tkaziladi.

Qisman texnik ko'rikda esa - statik va dinamik sinov o'tkazilmaydi.

Ko'rik paytida barcha mexanizm va elektr asboblari, xavfsizlik asboblari, tormoz qurilmalari, boshqarish jihozlari, signal beruvchi va yorituvchi asboblari ishlab turgan holatda tekshirib chiqiladi.

Statik sinov mashinaning yuk ko'tarish qobiliyatidan 25% ko'p yuk ortilgan holatda o'tkaziladi. Bunda, erdan 20-30 sm yuqoriga ko'tarilib, 10 minut davomida ushlab turiladi va shundan so'ng qoldiq deformatciyalar sin-chiklab tekshiriladi.

Dinamik sinov mashinaning yuk ko'tarish qobiliyatidan 10 foiz ko'p yuk bilan bir necha marta ko'tarib tushirib sinaladi.

Mashinalarning bevosita yuk ko'taruvchi moslamalari (stropalar, trosslar, zanjirlar, qisqichlar, ilgaklar) foydalanishga tushirilishidan oldin va har galgi sozlashdan so'ng, sinovdan o'tkazilishi shart. Sinov me'yordagi yuk ko'tarish qobiliyatidan 25% ko'p ortilgan holda bajariladi.

Po'lat arqonlar o'ramning har qadamidagi uzilgan simlar soniga va zanglash sababli diametrining kamayganligiga qarab, me'yoriga solishtirib, ishga yaroqliligi yoki yaroqsiz ekanligi aniqlanadi.

Po'lat arqon sim yoki zanjirlarni, oddiy sinalmagan simlar bilan ulab uzaytirib, ishlab chiqarishga qullash taqiqlanadi.

Bajardi	Mirzayev B			Bitiruv malakaviy ishi	Var.
Rahbar	Ostonov I				
O'zg.	Var	Hujjat N°	Imzo	Sana	

Yuk tuproq shag'al ostida bo'lsa yoki ustida boshqa narsalar bo'lsa, uni ko'tarish ko'tarish mumkin emas va yukni ko'tarilgan holda qoldirib (tanaffus yoki ish tugagach) ketish qat'iy man qilinadi.

Mehnat xavfsizligini ta'minlash uchun barcha mexanizmlarning ko'tarish tizimlari, "O'zsanoatkontexnazorat" tishkiloti tasdiqlagan liftlarni qurish va xavfsiz ishlatish qoidalariga muvofiq har bir ko'tarish tuzilmasi o'z pasportiga ega bo'lishi, unda tuzilmaning tavsifi (turi, qancha yuk ko'tara olishi, harakat tezligi va xokazo) ko'rsatilishi lozim. Bundan tashqari, tuzilmalarda o'tkazilgan tuzatish ishlari yozib boriladigan daftar hamda ruxsat etilgan chekli ish yuklanishi hamda navbatdagi sinov va "O'zdavtog'texnazorat"ga taqdim qilish muddatini ko'rsatuvchi o'chib ketmaydigan yozuv bo'lishi zarur.

Yuk ko'tarish mexanizmlarining soz holatda saqlanishiga va ulardan xavfsiz foydalanishga javobgarlik ana shu mexanizmlar ishlatiladigan korxonada bo'linmasi yoki muhandis-texnik xodimi zimmasiga yuklatiladi. Bu xodim maxsus buyruq bilan tayinlanadi.

Yuk ko'tarish mexanizmlaridan xavfsiz foydalanish uchun, ayniqsa, ularning tayanch qismlari, arqon, tros, ilgak va boshqa qismlari kattaroq mustahkam zahira bilan tayyorlanadi.

Mexanizm va tuzilmalarda ularning imkoniyatidan og'irroq yuklarni, odamlar hamda begona (og'iligi aniq bo'lmagan) yuklarni ko'tarish, nosoz yuk ko'tarish mexanizmlari va tuzilmalaridan foydalanish man etiladi.

Yoshi 18 dan kichik bo'lmagan, o'qigan, yo'l-yo'riq olgan va malaka sinovidan (attestatciyadan) o'tgan, shuningdek, tegishli guvohnomaga ega bo'lgan kishilar yuk ko'tarish tuzilmalari hamda mexanizmlarida ishlashga ruxsat etiladi.

Yuk ko'tarish va tashish vosittalarini xavfsiz ishlatishga qo'yiladigan asosiy talablar quyidagilardan iborat:

- a) Hamma aylanuvchi va harakatlanuvchi qismlari hamda mexanizmlari ishonchli to'siqqa ega bo'lishi;
- b) Signalizatsiyasi, blokirovkali tormozlari ishonchli ishlashi kerak.

Bajardi	Mirzayev B			<i>Bitiruv malakaviy ishi</i>	Var.
Rahbar	Ostonov I				
O'zg.	Var	Hujjat N°	Imzo	Sana	



Omborxonalar va ayrim tcexlardagi transportyor va konveyerlarning eng havfsiz harakat tezligi 0,2 m:s.dan oshmasligi zarur va tezlikni cheklab turish uchun, tezlik cheklagichlari bilan ta`minlanishi darkor.

Osma tashish tuzilmalari (elektr relslar, osma elektr shatakchilar, etektr poezdlar tasmali transportyorlar), odatda, ish o`rinlari hamda yo`laklar tepasida joylashtirilmasligi kerak va ular ishonchli himoya vo-sitalari yordamida o`rnatilishi, tushib ketgan yukni tutib qola oldigan darajada mustahkam bo`lishi kerak.

Ishlab chiqarish korxonalarida yuklarni ortishtushirish, taxlash va joylashtirish bilan bog`liq hamma yumushlar Mehnat haqidagi Konunlar asosida "Ortish-tushirish ishlari. Xavfsizlikning umumiy talablari"ga muvofiq belgilab qo`yilgan.

Ortish-tushirish ishlari ko`tarishtish tuzilmalaridan foydalanib bajariladigan bo`lsa, korxonada ma`muriyati ishlarning xavfsiz amlga oshirishligiga javobgar shaxsni tayinlaydi. Bu shaxs yukni ortish-tushirish va tashish vositalari hamda usullarning to`g`ri tanlanishini kuzatib turishi lozim. Bunday ishlar tajribali xodim rahbarligida olib boriladi. Bunday shaxslar "O`z davkontekst nazorat" tashkilotlari vakili ishtirokida imtihondan o`tkazilib, maxsus guvohnomaga ega bo`lishlari shart hisoblanadi.

Ish beruvchi (brigadir, master) yuk tushiriladigan maydonchani tayyorlaydi, yuklarni ortish-tushirish o`amda taxlash tartibi va usulini aniqlaydi, ishlarni xavfsiz bajarish yo`llari va usullari yuzasidan yo`l- yo`riq beradi, mexanizm va kranlar bilan ta`minlaydi.

Ortish-tushirish ishlari asosan mexanizatciyalashtirilgan usulda, ya`ni tushirgichlar yordamida, ishlar hajmi kichik bo`lganida esa kichik mexanizatciyalar yordamida amalga oshiriladi.

-20 kg.dan og`ir yuklar uchun, shuningdek, yuklarni 3 m dan balandga ko`tarishga ortish-tushirish ishlari mexanizatciyalashtirilgan usulda amlga oshiriladi.

-500 kg.dan og`ir yuklarni kranlar bilan ortish tushirishga ruxsat etiladi.

-Yuklarni gorizantal yo`nalishda tashish va ortish uchunpolda yuradigan transportdan foydalaniladi, bunday transpot asosan, yuklarni texnologik jarayon boshlanadigan joyga va tayyor maxsulotni omborga tashib keltirishda foydalaniladi.

Yuklarni tug`ri mahkamlash ortish-tushirish ishlarining xavfsiz bajarishda katta ahamiyatga ega.

Bajardi	Mirzayev B			<i>Bitiruv malakaviy ishi</i>	Var.
Rahbar	Ostonov I				
O`zg.	Var	Hujjat N°	Imzo	Sana	

Agar yukni ko'chirish vaqtida zanjir va arqonlarning o'z-o'zidan echilib yoki siljib ketish ehtimoli bo'lsa, yuklarni tushib ketishi, baxtsiz hodisalar yuz berishi mumkin.

Yuk ko'tarish mashinalari saqllovchiva blokirovkalovchi tuzilmalari bilan uskunalanishi shart hisoblanadi.

Kranlarga yuk ko'tarish imkoniyatini ko'rsatuvchi belgilar, signal asboblari (qo'ng'iroq, gudok, sirena) kranlar kabinasidan tashqariga o'rnatiladi. Barcha yuk ko'tarish mashinalarida ularning eng ko'p yuklanishi, tartib raqami va navbatdagi sinovdan o'tkazilgan kuni haqida ko'rsatilishi kerak.

Zamonaviy ishlab chiqarish korxonalarida juda murakkab va ko'p tarmoqli tashkilot bo'lib, qaramog'ida katta maydonlar mavjud. Tabiiyki bunday maydonlarda xom ashyo, tayyor mahsulot va yordamchi materiallarni bir erdan ikkinchi erga tashish uchun xilma-xil transport vositalari ishlatiladi.

### **3.3. Korxonalarining yong'in va portlash xavfi bo'yicha darajalari.**

Ishlab chiqarish jarayonlari yong'in va portlash xavfsizligi, ularni rejalashtirishda, GOST 12.1.004.-91 "Yong'in xavfsizligi umumiy ". Umumiy talablari va GOST 12.1.010-90 "Portlash xavfi". Umuiy qoidalariga muvofiq bo'lishi talab qilinadi.

Hozirgi paytda ishlab chiqarilayotgan uskuna va jihozlar, yong'in va portlab ketish jihatidan xavfsizdir. Ammo bu uskuna va jihozlar ishlab chiqarishning yong'in va portlash xavfi bo'yicha turiga mos ravishda to'g'ri tanlangandagina xavfsizlikni ta'minlay oladi.

Korxonalarining ishlab chiqarish texnologiyasi, ishlatiladigan xom ashyosi, tayyorlaydigan mahsuloti va joylashgan binosining loyihasini hisobga olib yong'in chiqishga, potlashga, yong'in chiqqan taqdirda uning tarqalishiga, shuningdek, yong'in va portlashning etkazgan asorati va qurilish meyoriy qoidalari (SNiP 2-90-81) asoslanib, xavflilik darajasi belgilanadi.

- A darajali yong'in va portlashga xavfli korxonalar. Bular suyuqlik ta'sirida havodagi kislorod bilan birikish natijasida yonishi va potlashi mumkin bo'lgan moddalar, chaqnash harorati 28<sup>0</sup> S.gacha bo'lgan suyuqlik va gazlarni portlash

Bajardi	Mirzayev B			<i>Bitiruv malakaviy ishi</i>	Var.
Rahbar	Ostonov I				
O'zg.	Var	Hujjat N <sup>o</sup>	Imzo	Sana	

imkoniyatini tug'dirishi mumkin bo'lgan korxonalar bo'lib, bosim 5 KP. gacha bo'lgishi kerak.

Bu darajaga oltingugurt, uglerod, efir, atseton ishlab chiqaradigan korxonalar kiradi.

- B darajali portlash va yong'inga xavfli korxonalar. Ularga chaqnash harorati 280S dan yuqori bo'lgan hamda ishlab chiqarish jarayonida chaqnash haroratigacha qizdirilgan suyuqliklar va changlar binoda bosim 5 KP. dan ko'proq miqdorda to'planib, portlovchi aralashma hosil qilishi mumkin bo'lgan korxonalar kiradi.

- V darajali korxonalar yong'inga xavfli bo'lgan, bug', harorati bo'lgan suyuqliklar, shuningdek, bir-biri bilan, havodagi kislorod suv bilan birikkan holda yonuvchi moddalar va qattiq yonuvchi jismlar bilan ish olib boradigan korxonalar kiradi.

- G darajali korxonalar, yonmaydigan jism va materiallarga, qizdirib, cho'g'lantirib va eritib ishlov berish jarayonida issiqlik, uchqun va alangalar chiqishi mumkin bo'lgan, qattiq, suyuq, va gazsimon moddalar yoqilg'i sifatida ishlatiladigan korxonalar kiradi.

- D darajali korxonalar, yonmaydigan jismlar va materiallarga sovuq ishlov beradigan korxonalar kiradi. Mashinasozlik sanoat korxonalar, qurilish sanoat korxonalar kiradi.

Yong'in va portlash darajasi korxonani loyihalash va ishga tushirish vaqtida har bir vazirlik tasdiqlagan ro'yxat bo'yicha aniqlanadi.

Bajardi	Mirzayev B			<i>Bitiruv malakaviy ishi</i>	Var.
Rahbar	Ostonov I				
O'zg.	Var	Hujjat N°	Imzo	Sana	

## XULOSA

Men o'zimning “**Barmoq D = 32, d = 22H7**” detalni tayyorlash texnologik jarayonni ishlab chiqish va detalni tayyorlashda qo'llaniladigan moslamani loyihalash ” mavzusidagi malakaviy bitiruv ishimda “**Barmoq D = 32, d = 22H7**” detalni tayyorlash texnologik jarayonini ishlab chiqdim va detalni tayyorlashda qo'llaniladigan moslamani loyixaladim. Texnologik qismida: detalning konstruktciyasi va xizmat vazifasi, menga berilgan detal chizmasining texnik nazoratini o'rgandim, detalning texnologiyasozligini tahlil qildim, ishlab chiqarishni tashkil etish tipini aniqladim, detal uchun tayyorlanma tanladim va asoslab berdim. Detalni tayyorlash uchun mexanik ishlov berish marshrutini ishlab chiqdim va texnologik operatciyalarni loyihaladim. Detalga mexanik ishlov berish natijasida ajraladigan quyimlarni, kesishda kesish rejimlarini hisobladim. Detalni tayyorlashda qo'llaniladigan jihozlarni tanlashni o'rgandim; konstruktorlik qismida detalni tayyorlashda qo'llaniladigan moslamani ishlab printcipi bilan tanishdim va hisoblab loyihaladim. Maxsus kesish asbobini hisobladim va loyihaladim. Detal tayyor bo'lgandan so'ng uni yaroqsiz yoki yaroqligini tekshirish maqsadida nazorat asbobini tanladim va hisobladim, va tayyor detal o'lchamlarini nazorat qilish usullarini o'rgandim. Detalni tayyorlashda qo'llaniladigan jihozlar miqdorini aniqladim. Hayot faoliyati xavfsizlik qismida dastgohlarda ishlash jarayonidagi texnika xavfsizligi va yong'inga qarshi kurash qoidalari bilan tanishdim.

<i>Bajardi</i>	<i>Mirzayev B</i>			<i>Bitiruv malakaviy ishi</i>	<i>Var.</i>
<i>Rahbar</i>	<i>Ostonov I</i>				
<i>O'zg.</i>	<i>Var</i>	<i>Hujjat N°</i>	<i>Imzo</i>	<i>Sana</i>	

## АДАБИЁТЛАР ВА ЭЛЕКТРОН ТАЪЛИМ РЕСУРСЛАРИ

1. Каримов И.А. “Она юртимиз бахту иқболи ва буюк келажаги йўлида хизмат қилиш – энг олий саодатдир” араф этишнинг йўллари ва чоралари.-Т.: Ўзбекистон, 2015.-304 б.
2. “Таълим тўғрисида” Ўзбекистон Республикасининг Қонуни. Олий таълим. Меъёрий ҳужжатлар тўплами. – Тошкент: “Шарқ” нашриёт матбаа акциядорлик компанияси. – 2001. – 3 – 15 б.
3. “Кадрлар тайёрлаш миллий дастури” Ўзбекистон Республикаси Қонуни. Олий таълим. Меъёрий ҳужжатлар тўплами. Т.: “Шарқ” нашриёт матбаа акциядорлик компанияси. – 2001. – 17-52 б.
4. Абдуллаев Ф.С., Загидуллин Р.Р. Болғалаш штамплаш жиҳозлари. Ўқув қўлланма. ТошДТУ. Тошкент 1996 й.
5. Базров Б.М Основы технологии машиностроения.-М: “Машиностроение”, 2005 г.-736 с.
6. Байдуллаев А. Технологик тизим элементларини математик моделлаштириш асослари. Ўқув қўлланма. Тошкент, 1996 й.
7. Горбачев А.Б. Курсовое проектирование по технологии машиностроения, Минск, «Высшая школа», 2007 г., 256 с.
8. Барташевич А.А. Материаловедение: Изд. “Феникс” Ростов-на-Дону, 2004 г. -352с.
9. Бурцев и др. Технология машиностроения в 2 – х томах. М., МГТУ им.Н. Е. Баумана, 1998 г.-563 с.
10. Мешеряков и др. Справочник технолога – машиностроителя в 2 – х томах. М., МГТУ им.Н. Е. Баумана, 1996 г.-651 с
11. Болотин Х.Л. Станочные приспособления. – М.: Машиностроение, 1993 г. – 276 с.
12. Jalilov H.I. Metallarni kesish nazariyasi asoslari, metall kesuvchi stanoklar va asboblari. Т.:“Talqin”2006 у.-175б.
13. Костромин Х.Л., Новиков М.П. Основы конструирования станочных приспособлений. – М.: “Машиностроение”, 1996 г.– 340 с.
14. Молчанов Г.Н, Сметанкин К.И, “Станки с ЧПУ”, Т.: “Ўқитувчи”, 1993 г.
15. Мирбобоев В.А. “Конструкция материаллар технологияси”. Т. “Ўқитувчи”. 2004 й.
16. Mirboboev V.A. Metallarni bosim bilan ishlash texnologiyasi. Т. “ILM ZIYO”, 2006 у.
17. Mirboboev V. A. Metallshunoslik asoslari.Т. “ILM ZIYO”, 2006 у.
18. Носиров И..Материалшунослик. Олий ўқув юрти талабалари учун дарслик. Т.: “Ўзбекистон” 2001 й. - 352 б.

Bajardi	Mirzayev B			Bitiruv malakaviy ishi	Var.
Rahbar	Ostonov I				
0'zgi	Var	Hujjat N°	Imzo	Sana	

19. Omirov A.Y. va Qaymov A.X. Mashinasozlik texnologiyasi. T., “O‘zbekiston”, 2003 y., 384 b.
20. Основы автоматизированного проектирования. М.: Издательство МГТУ имени Н.Э Баумана, 2002 г.-333 с.
21. Перегудов Л.В., Хашимов А.Н., Шалагуров И.К., Нерегудов С.Л. Автоматлаштирилган корхона станоклари. Тошкент.: “Ўзбекистон”, 2001 й.-496с.
22. Проектирование металлорежущих станков и станочных систем. В 3-х т. Т.37 Под ред. А.С.Проникова.-М.:Изд. МВТУ им.Н.Э.Баумана и МГТУ “Станкин”. 2000 г.-584с
23. Суслов А.Г. Технология машиностроения. – М: “Машиностроение”, 2004 г.-400с.
24. Файзиматов Б.Н., Мирзаев А.А. Материалларни кесиб ишлаш асослари.-Фарғона: “Техника”, 2003 й.-194 б.
25. Файзиев Р.Р.Метрология, ўзаро алмашувчанлик, стандартлаштириш. Т.: “Меҳнат”, 2005. 358 б.
26. Федин Е.И., Кузнецов В.П., Ямников А.С. Проектирование схем технологических наладок на операции механической обработки резанием.- Тула: Изд. ТулГТУ, 2005г.-116с.
27. Qayumov A., Kabulov M. Mexanika – yiguv sexlarini loyihalash. T.-“Fan va texnologiya”-2007 y. 210 b.
28. Holiqberdiev T.U. Mashinasozlik texnologiyasi asoslari.T.: Toshkent.- 2011, 455 b.
29. [www.Ziyo.net](http://www.Ziyo.net)
30. [www.tdpu.Uz](http://www.tdpu.Uz)
31. [www.pedagog.Uz](http://www.pedagog.Uz)
32. [www.edu.Uz](http://www.edu.Uz)

<i>Bajardi</i>	<i>Mirzayev B</i>			<i>Bitiruv malakaviy ishi</i>	<i>Var.</i>
<i>Rahbar</i>	<i>Ostonov I</i>				
<i>O'zg.</i>	<i>Var</i>	<i>Hujjat N°</i>	<i>Imzo</i>		<i>Sana</i>

## MUNDARIJA

KIRISH.....	
I. TEXNOLOGIK QISMI.....	
1.1. Detalning konstruktciyasi va xizmat vazifasi.....	
1.2. Chizmaning texnik nazorati.....	
1.3. Detalning texnologiyasozligi tahlili.....	
1.4. Ishlab chiqarishni tashkil etish tipini aniqlash.....	
1.5. Detal uchun tayyorlanma tanlash va asoslash.....	
1.6. Mexanik ishlov berish marshrutini ishlab chiqish.....	
1.7. Texnologik operatciyalarni loyihalash.....	
1.8. Quyimlarni hisoblash.....	
1.9. Kesish rejimlarini hisoblash.....	
1.10. Texnologik jihozlarini tanlash.....	
1.11. Texnik me`yorlash.....	
II. KONSTRUKTORLIK QISMI.....	
2.1. Dastgoh moslamasini ishlab chiqish va hisoblash.....	
2.2. Nazorat asbobini loyihalash.....	
2.3. Maxsus kesish asbobini loyihalash.....	
2.4. Jihozlarning miqdorini aniqlash.....	
III. HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIK QISMI.....	
3.1. Texnologik jarayonlarni xavfsizligini ta`minlovchi vositalar.....	
3.2. Yuk ko`tarish va tashish ishlarida xavfsizlikni ta`minlash.....	
3.3. Korxonalarining yong`in va portlash xavfi bo`yicha darajalari.....	
XULOSA.....	
Adabiyotlar va elektron ta`lim resurslari.....	

Bajardi	Mirzayev B			<i>Bitiruv malakaviy ishi</i>	Var.
Rahbar	Ostonov I				
O`zg.	Var	Hujjat N°	Imzo	Sana	